



SACHRATQI - *CICHORIUM INTYBUS L.* NING DORIVORLIK XUSUSIYATI VA YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASI

¹Shodmonova Sarvinoz Safarqul qizi

²Quvonova Munira Muzaffar qizi

³Sobirova Muqaddas Botirovna

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

E.mail: sshodmonova7@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda sachratqi o'simligining guli, bargi, yosh novdasidan turli maqsadlarda foydalanib kelinadi. Ushbu maqolada sachratqi (*Cichorium intybus*) o'simligining morfologik tuzilishi, tarqalish areali va o'stirish agrotexnologiyasi tahlil qilingan. Tajriba maydoniga ekilgan bu o'simlikning tuproq strukturasi chidamlilik darajasi va boshqa xususiyatlari aniqlandi.

Kalit so'zlar: Sachratqi, *Cichorium intybus L.*, inulin, podagra, intibin gliko-zidi, quritilgan ildiz, namlik chizig'i, Asteraceae, pardasimon popukli, prizmasimon pistacha.

Kirish: Sachratqi (*Cichorium intybus L.*) – Asteraceae oilasiga kiruvchi urchuqsimon va yo'g'on ildizli ko'p yillik o'simlik. Poyasi tik turuvchi va uzun tuklar bilan qoplangan, barglar qarama qarshi joylashgan. Gullari ko'k, pushti va oq rangda, to'pgullari ichida yoki kalta savatchalarda joylashgan. Sachratqi mevalari – pardasimon popukli prizmasimon pistacha. Bitta sachratqi to'pidan 3-25 ming dona urug' olish mumkin. O'simlikning barcha organlarida sutlama naylari joylashgan. Sachratqi yozda gullab, yozning oxiridan kuzning o'rtalariga qadar mevalaydi. Hozirgi vaqtda sachratqi dunyoning ko'plab mamlakatlarida mazali ziravor va parxez taom mahsuloti sifatida ommabop hisoblanadi. Maydalanib qovurilgan sachratqi ildizi uzoq vaqtlardan beri Yevropaliklarning



qahvaga (kofe) qo'shiladigan sevimli ichimliklaridan biridir. Sachratqi ildizidan sut va qaymoq qo'shib tayyorlangan sharbat qahvaning o'rnini bosuvchi ichimlik sifatida asosan bolalar va sog'ligi tufayli qaxva ichish mumkin bo'lmagan odamlarning ratsioniga kiritilgan. Belgiyaliklar sachratqini pishloq va olma bilan dimlaydilar, latviyaliklar asal, limon va olma sharbati qo'shilgan holda sachratqi ildizidan salqin ichimlik tayyorlashadi [1].

Uchrash joyi: Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarida keng tarqalgan, quyi va o'rta tog' mintaqasining toshli va shag'alli qiyaliklarida o'sadi [1.3.7].

Kimyoviy tarkibi: Sachratqi ildizida 60% gacha inulin, 10-20% fruktoza, intibin glikozidi (farmatsevtika sanoatida qo'llaniladi), shuningdek, karotin, B (B₁, B₂, B₃) vitaminlar guruhleri, C vitamini, makro va mikroelementlar (Na, K, Ca, Mg, P, Fe va boshqalar), organik kislotalar, taninlar, pektin, oqsil moddalari, smolalar mavjud. Sachratqi ildizi tarkibida qimmatli modda inulin mavjud bo'lib, metabolizmni yaxshilaydi va ovqat hazm qilish tizimining faoliyatini normalashtiradi [2.3.8].


Turli xil kasalliklarni davolashda sachratqi o'simligidan foydalanish: Sachratqi o'simligi uzoq vaqtdan buyon xalq tabobatida mashhur bo'lgan qimmatbaho dorivor o'simlik. Sachratqi ildizi qadimgi Rimda ovqatni hazm qilishni yaxshilash uchun ishlatilgan. Misrda undan ilon va o'rgimchak chaqqanida zaharga qarshi zardob tayyorlashgan. Mashhur Abu Ali ibn Sino oshqozon-ichak trakti va ko'z kasalliklari, ko'z yallig'lanishi hamda podagra kasalliklarini davolashda sachratqi foydalangan. Zamonaviy tibbiyotda sachratqi o'zining foydali dorivor xususiyatlari (tinchlantiruvchi, shakar miqdorini pasayturuvchi, bog'lovchi, o't haydovchi, siydik haydovchi, yallig'lanishga qarshi, isitma tushiruvchi, gijja haydovchi xususiyatlar) tufayli juda xilma-xil qo'llanish vositasi sifatida ahamiyatga ega [1.2.4].



Yetishtirish agrotexnologiyasi: Sachratqi o'simligiga ariq bo'ylarida, turli o'simlik ekinlari orasida tabiiy holda o'suvchi yovvoyi o'simlik sifatida qaraladi. Ammo bu o'simlikning dorivorlik xususiyati va boshqa sohalarda qo'llanilishi uni dala maydonlarida yetishtirilishini taqozo etadi. O'simlikni dorivorlik xususiyati va tarkibidagi inulin moddasining miqdorini aniqlash maqsadida tadqiqot ishlari olib borildi.

Yerga ishlov berish va urug'ni ekish: Dastlab tajriba maydoni begona o'tlar (ajriq, kovul va maysalar) dan tozalandi va ekish joyi 1m^2 qilib belgilandi. Qatorlar 5 ta bo'lib, qatorlar oralig'i 15 smni tashkil qildi. Bitta sachratqi to'pidan 3-25 ming dona urug' olish mumkinligi adabiyotlarda qayd etilgan. Tajriba maydoniga ekilayotgan urug'larning bitta to'pida 10-20 donagacha urug' borligi aniqlandi. Har bir qatorga 10 donadan jami 50 dona urug' 1sm chuqurlikda ekildi. O'simlik o'rtacha quruqlik va nam darajada tuproqlarda yaxshi o'sadi. Tuproq organik moddalar bilan ham boyitilgan bo'lishi bilan birga pH muhitining normal darajada bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'simlik sho'r yoki doimiy nam tuproqda yaxshi o'smaydi [4.5.7].

Belgilangan namlik chizig'idan 15-20 sm oralig'ida 2 tadan urug' solindi, bu chiziq ustidan 1-3 smdan 4-5 sm gacha quruq tuproq bilan yupqa qilib urug'lar usti yopildi. Urug' atrofidagi namlik 3 kun (kech ekish / iliqroq) dan 5 kungacha (erta ekish / sovuqroq) bo'lishi talab etiladi. Urug'lar soni 1m^2 joy uchun o'rtacha 50 tani tashkil etdi.



a



b



c



1-rasm. Sachratqi o'simligini ekish jarayoni a) yerni tayyorlash; b) urug'larni ekish; c) unib chiqqan nihollar


TADQIQOT NATIJALARI

Sachratqi o'simligi urug'larini ekkanimizda dala tajriba maydoni tuprog'i yetarli darajada ishlov berilmaganligi va quyosh nuri yetarlicha tushmaganligi uchun ekilgan sachratqi urug'larining 44% unib chiqdi. Nish hosil bo'lishi uchun 5-7 kun vaqt kerak bo'ldi. Oxirgi olingan statistik ma'lumotlar nihol uzunligini 10 sm ekanligini qayd etadi. Maydonni yorug' yaxshi tushmaganligi va suv bug'latish jarayoni sekin kechganligi sababli har 3 kunda namlab turish amalga oshirildi.

1-jadval.

Sachratqi o'simligi urug'larining unuvchanligi

	N=10 Jami ekilgan urug'lar	Unib chiqqan urug'lar
1	10	1
2	10	10
3	10	-
4	10	10
5	10	1



2-rasm. Sachratqi o'simligining o'sish dinamikasi

Sachratqi o'simligining dorivorlik xususiyati va tarkibidagi inulin moddasini ajratib olish texnologiyasini o'rganish maqsadida yuqoridagi tadqiqot usullari amalga oshirildi. Xulosa qilib aytganda sachratqi o'simligi doimiy ravishda ariq yoqalarida, sernam joylarda, nam joylarda o'suvchi o'simliklar orasida o'sganligi sababli tajriba maydonidagi tuproq unumdorligi pastligi yetarlicha quyosh nuri, namlik va boshqa omillar yetmaganligi tufayli urug'larning 44% unib chiqdi. Bundan ko'rinib turibdiki, bu o'simlikni yetishtirish texnologiyasini chuqurroq o'rganib chiqish va boshqa davlatlar agrotexnologiyasi bilan taqqoslagan holda tadbiq qilish maqsadga muvofiqdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O.K. Xojimatov, X.Q. Haydarov, D.T. Xamraeva, D.A. Imomova, A.N. Xujanov. O'zbekiston dorivor o'simliklar atlası. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
2. Sobirova M. Determination of stimulant properties of local rhizobacteria-based bioproducts against *Cynara scolymus* L.//The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering//. 2022. – 4 (02), p. 26-30.
3. Sobirova M., Murodova S. Effects of bioparasites on *cynara scolymus* L., micro and macroelements, and quantity of flavonoids // In E3S Web of Conferences//. 2021. Vol. 258.
4. O.S. Abduraimov, I.E. Mamatkulova, A.V. Mahmudov "Structure of local populations and phytocoenotic confinement of *Elwendia persica* in Turkestan Ridge, Uzbekistan".BIODIVERSITAS ISSN: 1412-033X.Volume 24, Number 3, March 2023 E-ISSN: 2085-4722.Pages: 1621-1628 DOI:10.13057/biodiv/d240334
5. Mamatkulova I.E."Elwendia Boiss turkumi turlarida efir moyi va antioksidantlik faolligini o'rganish". Материалы научной конференции проблемы биофизики и биохимии - 2023.119 стр.19 мая 2023 года.
6. O'. Axmedov. Shafolat Nur Fayz, Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi. Toshkent 2020.
7. N.S.Abdullayeva. U.Raxmonqulov. "O'zbekiston dorivor o'simliklari" o'quv qo'llanma. Jizzax 2020
8. С. Мелибоев, М. Исроилов, З. Исомиддинов, Х. Абдуназаров, Ш. Турсунова. "Ўзбекистон Флорасида Учрайдиган Доривор Ўсимликлар" "Farg'ona nashriyoti"2018.